

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI BUXGALTERIYASI FAOLIYATIDA RENTABELLIK KO'SATKICHLARI TAHLILI

Ibodillayev Habibulla Abdullayevich,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" ta'lif yo'nalishi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolda Madaniyat markazlari buxgalteriyasi faoliyatining rentabellik ko`rsatkichlarini oshirish va boshqarish xususida bat afsil fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasi buxgalteriyasi faoliyatida rentabellik ko'satkichlari tahlili hamda tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: madaniy faoliyat, iqtisod, madaniyat markazlari, rentabellik, bugalteriya, islohotlar

АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРИБЫЛЬНОСТИ В УЧЕТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СФЕРЫ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

Ибодиллаев Хабибулла Абдуллаевич,

Государственный институт искусства и культуры

Узбекистана Образовательное направление

«Менеджмент культуры и искусства»

магистрант 2 курса

Аннотация: В данной статье даны подробные мнения по повышению и управлению показателями рентабельности бухгалтерской деятельности домов культуры. Также дана информация об анализе показателей рентабельности и результатах исследований в области бухгалтерского учета деятельности сферы культуры и искусства.

Ключевые слова: культурная деятельность, экономика, культурные центры, рентабельность, учет, реформы

ANALYSIS OF PROFITABILITY INDICATORS IN ACCOUNTING ACTIVITY OF CULTURE AND ART FIELD

Ibodillayev Habibulla Abdullayevich,

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

"Management of culture and art" educational direction

2nd year graduate student

Annotation: In this article, detailed opinions on increasing and managing profitability indicators of cultural centers' accounting activities are given. Also, information about the analysis of profitability indicators and research results in the accounting activities of the culture and art sphere is given.

Key words: cultural activity, economy, cultural centers, profitability, accounting, reforms

San'at va madaniyat sohasi menejmenti mamlakatimizda aholi turli tabaqalari vakillarini badiiy, estetik, ahloqiy, ijtimoiy-siyosiy, yo'nalishlarda tarbiyalash, odamlarning ma'naviy, ijodiy faolligini tashkil etish, barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni va roli kattadir.

Madaniyat va san'at sohasidagi o'zgarishlar, xususan madaniyat markazlari, madaniyat va san'at saroylari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, mahalla guzarlari, axborot-resursmarkazlari, kutubxonalar, rassomlik galeriyalari orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Sobiq sho'rolar davrida bu faoliyat madaniy-oqartuv ishi nomi bilan yuritilar, ularning asosiy ish mazmuni totalitar tuzum mafkurasining badiiy vositalar orqali aholining enquyi qatlamlariga qadar yetib borishi uchun xizmat qilar edi. O'sha davrdagi klubmuassasalariga odamlar deyarli kirishmas, badiiy havaskorlik ijodiyoti nomiga tashkietilar edi. Qishloq joylaridagi kutubxonalarning eshiklariga qulf solib qo'yilgan bo'lib, ulardagi kitoblar soni 3-5 mingdan oshmas, ular ham asosan siyosiy adabiyotlardan iborat edi.

Madaniyat va san'at sohasi tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, teskari insni o'ziga jalg etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rganib borganlar. O'rgatish uzluksiz, doimiy davom etgan. O'rgatish uzluksizligi va doimiyligi ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Demak madaniyat sohasi faoliyatini ta'limning asosi deyish mumkin.

Madaniyat va san'at menejmenti haqida ikki yo'nalishda so'z ketadi. Birinchidan, keng ma'noda inson yashash sharoiti uslublari ijtimoiy vokelik sifatida shaxs ijtimoiylashuviga taalluqli bo'lмаган holda va ijtimoiy hodisa tizimiga oid fikrlar: madaniyat va san'at moddiy va ma'naviy muhitni ifodalaydi, insonni shakllanishi va yuksalishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, tor ma'noda, jamiyat hayotidagi aniqdoiraga oid fikrlar: (madaniyat va san'at doirasi). Madaniy-tarixiy merosni saqlash va ulardan foydalanishni qamrab oladi (muzey, kutubxona, arxiv ishlari, milliy va mahalliy an'analar, bayramlar va boshqalar). Badiiy ta'lim va bolalar ijodiyoti, san'at, ijodiy (badiiylikka uyg'un) faoliyat, kontsert faoliyati, bo'sh vaqtida ko'ngilochar ishlarni tashkillashtirish, havaskorlik, etnografik san'at va hunar, shuningdek, ularni ta'minlab beruvchi faoliyat (madaniyat iqtisodiyoti, moliyalashtirish, boshqaruv, axborot, kasbiy faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash). Madaniyat doirasidagi faoliyat turli rasmiy idoralar (davlat, munitsipal, xususiy, jamoat tashkilotlari va h.k.), shuningdek, ayrim odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Bundan so'ng ularning barchasi qisqa qilib firmalar deb ataladi.

Hozirgi kunda madaniyat va san'at doirasi istalgan firma faoliyatiga tegishlidir (nafaqat madaniyat doirasiga), shuningdek, ulardagi menedjmentlarga

xam. Madaniyat ishlarida ko'rinaradiki, zamonaviy menedjment, nafaqat o'z ijtimoiy-madaniy kontekstlariga, ijtimoiy doiradagi firmalariga yanada ko'proq bog'liq bo'ladi, balki o'zi xam yangi ko'rinishdagi ijtimoiy-madaniy texnologiya jihatlarini xam o'zlashtirib oladi. Buning ustiga, har bir firma aniq bir madaniyat tashuvchisiga aylanadi.

Madaniyat doirasi-zamonaviy menejment xam o'zidagi bor xususiyatlarga asoslanib, madaniyat doirasidagi muassasalar bilan juda muhim xamkorlik olib boradi: homiylikning keng yoyilishi, xayriya, jamoatchilik o'rtasidagi turli aloqalar, bularsiz xech bir amal yuzaga chiqmaydi. Madaniyat va san'at sohasi menejmentining dastlabki ko'rinishlaridagi faoliyati hisoblangan Madaniyat va san'at sohasi menejmentining yuqori bosqichi odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo'shimcha kasblar, hunarlarni o'rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to'garaklarda faoliyat yuritish singari mashg'ulliklar tarzida amal qila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 14-may kuni «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

Unga ko'ra, 2018-yil 1-iyundan davlat madaniyat muassasalari artistlari, ma'muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, ijodiy va boshqa xodimlarining (madaniyat vazirligi), shuningdek, davlat arxivlari boshqaruv xodimlari va mutaxassislarining («o'zarkiv» agentligi) mehnat haqi miqdorlarini o'rtacha 45 foizga oshiriladi. 2018-yil 1-iyundan davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlarining malaka toifalari va lavozimlari bo'yicha bazaviy lavozim maoshlarini belgilashni nazarda tutuvchi mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish hamda lavozim maoshlari o'rtasidagi tafovutni ko'paytirish hisobiga kasbiy o'sish rag'batlantiriladi. 2018-yil 1-iyundan o'zbekiston davlat sirkisi, hayvonot bog'lari,

¹ <http://m.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/madaniyat-muassasalari-xodimlari>

o'zbekiston respublikasi madaniyat vazirligining ko'zi ojizlar uchun kutubxonalari hamda davlat arxivlari xodimlarining alohida toifalariga teatr-konsert tashkilotlarining artistlari va badiiy xodimlariga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun belgilangan miqdorlarda har oyda taqdirlash puli belgilanadi.

2018 yil 11-iyun kuni Toshkentda "Ijodiy sanoatni boshqarish" yozgi maktabining ochildi. Yozgi maktab tashkilotchilari - Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti (TXVU) va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi hozuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish Jamg'armasi etib belgilandi. Yozgi maktab - ijodiy sanoat sohasida nazariy va amaliy bilimlar asoslarini shakllantirishga qaratilgan loyiha². Dastur madaniyat muassasalari va ijodiy sanoatning boshqa yo'nalishlarini boshqarishning iqtisodiy, tashkiliy va kasbiy jihatlarini va san'at sohasi marketingi, mozeylar, teatrlar, kino sanoati va turizm sohasida boshqarish kabi masalalarni qamrab oladi.

Yozgi maktabda TXVU, O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari ta'lim olishi belgilangan. "Tasviriy san'atni boshqarish" yozgi o'quv dasturi "Garaj" zamonaviy mozeyi (Moskva) ishtirokida tashkil etildi. Ma'ruzachilar orasiga - muzey direktori Anton Belov, rivojlanish, marketing va reklama bo'limi boshlig'i Darya Kotova, Tiklanish va taraqqiyot loyihalari bo'yicha direktor o'rinosi Anna Trapkova, kurator Ekaterina Lazareva, nazoratchi Alesya Veremeva, Alena Solovyova jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi raisi loyihasi direktorining o'rinosarlari kiritilgan. Yozgi o'quv kurslarida nafaqat universitet o'qituvchilari, balki taklif etilgan mutaxassislar, tadbirkorlar, madaniyat xodimlari va san'atkorlar ham o'z tajribalarini talabalar bilan baham ko'rishlari mumkin. Yozgi maktab doirasida, O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi rajissor Zulfiqor Musoqov va "Focus" san'at maktabi bazasi asosida master-kalsslar o'tkaziladi. Dasturning maqsadi yoshlarning

² <https://acdf.uz/oz/news/letnyaya-shkola-upravlenie-kreativnoy-industriey>

ijtimoiy faolligini oshirishga, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga, ijodiy sohani boshqarishdagi professional ko'nikmalarga ega bo'lishga ko'maklashadigan ixtiyoriy tashabbuslarni ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Xususan, dastur qatnashchilarni ijodiy tadbirdorlik, muzeylarning rivojlanish va faoliyatining zamonaviy modellari bilan tanishtiradi. Kursda madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruv asoslari va ularning keng jamoatchilik nuqtai nazaridan joylashuvi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ijodiy soha boshqaruvchisining professional vazifalari - bozor ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlar, xavfni va imkoniyatlarni baholash, shuningdek, bozorni rivojlantirish va resurslarni jalb qilish bo'yicha marketing strategiyalariga alohida e'tibor beriladi. "Ijodiy sanoatni boshqarish" yozgi maktabida o'qitish bepul asosda olib boriladi. Kurs natijalariga ko'ra, barcha ishtirokchilarga sertifikat berildi.

Madaniyat va san'at sohasining jahon mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni. AQSh musiqa sanoati ushbu davlatning kimyo sanoatidan ko'ra ko'proq daromad topadi; AQShda patent, mualliflik xuquqi, intellektual mult, savdo markalaridan kelayotgan daromad Rossiya YaIMdan ko'p; Zalsburg musiqa va teatr festivali Avstriya iqtisodiyotining 30% daromadini olib keladi; Horijiy davlatlarning muzeylari tomonidan suratlarni ko'rgazmalarga ijaraga berilishi hisobidan katta daromadga ega bo'lishadi; Sharl De Goll "Madaniyat bu Fransiya nefti" deb ta'kidlagan.

31.05.2017-yil Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida PQ-3022³. Bu qaror asosan madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2017-y., 31/05/3022-1

faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

Madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnika bazasi holatini atroflicha o'rghanish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinnlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog'lari hududida "Nuroniyalar maskan"larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

"Seni kuylaymiz, zamondosh!", "Debyut" kabi teatr san'ati ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahma asarlarini yaratish. "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli xalq sayillarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyoohlarni keng jalb etish etish kabi vazifalarni qo'yadi.

Madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rghanish, bu borada kadrlar

tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minalash; O‘zbekistonning yuksak madaniyati va san’atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirda chet ellik madaniyat va san’at namoyandalari keng qatnashishlarini ta’minalash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanishni ko‘zda tutadi.

01.08.2018-yil. Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-38924. Bu qaror asosan so‘nggi yillarda madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, madaniyat va san’at muassasalari binolarini qurish va ta’mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi ishlar talab darajasida emas.

Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va ularning moddiy-texnik ahvolini mustahkamlash, aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

⁴ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.08.2018-y., 01/08/3892-2

Madaniyat va san'at yo'nalishidagi nodavlat muassasalarining binolarini qurish uchun bepul asosda doimiy foydalanishga yer uchastkalari ajratish; konsessiya asosida qurilish uchun yer uchastkasi yoki rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun bino ajratish; Bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatmayotgan davlat madaniyat va san'at muassasalarining binolarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "nol" xarid qiymatida sotish; Xususiy sherikning mol-mulki negizida tashkil qilingan madaniyat va san'at nodavlat muassasalarini moddiy-texnik, moliyaviy va metodik ta'minlash, otaliq shaklidagi xayriya faoliyatini olib borish, madaniy xizmat ko'rsatishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifasiga imtiyozlar berish;

Madaniyat va san'at nodavlat muassasalarini rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish tadbirlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg'armasida ochiladigan alohida hisobvaraqda jamlash to'g'risidagi;

Madaniyat va san'at nodavlat muassasalari xarajatlarining bir qismini qoplash uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil qilingan shunday muassasalarga davlat madaniyat va san'at muassasasining yillik daromadlari va xarajatlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish tartibini joriy etish to'g'risidagi takliflari qabul qilindi hamda aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ushbu sohada madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjud. metsenatlar va homiyalar yordamini jalb qilishni rag'batlantiradigan samarali huquqiy mexanizmlarning yo'qligi respublika madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini, eng avvalo, muqobil manbalar hisobidan munosib tarzda moliyalashtirishni ta'minlash imkonini bermayapti, bu esa budjet mablag'lariga

haddan ortiq qaramlikni keltirib chiqarmoqda; xodimlarning kasbga tayyorgarlik darajasi hamda madaniyat va san'at muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatharning sifati zamonaviy talablarga va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning mahalliy tashrif buyuruvchilar va turistlar uchun jalg etuvchanligini pasaytirmoqda; mahalliy madaniyat va san'at muassasalarining jahon madaniy makoniga puxta integratsiya qilinmaganligi mamlakatimizning ijobiliy qiyofasini shakllantirishda va mintaqaning madaniy markazi sifatidagi maqomini mustahkamlashda mavjud boy madaniy-tarixiy merosdan hamda madaniyat va san'atning zamonaviy yo'nalishlaridan to'liq foydalanish imkonini bermayapti; madaniy meros obyektlari, respublikaning muzey, arxiv, kutubxona va boshqa jamg'armalari butligini ta'minlashga lozim darajada e'tibor qaratilmayapti, bu esa mamlakat madaniy-tarixiy merosini saqlash va ommalashtirishga kompleks yondashish imkonini bermayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Sh.Qayimov, A.S.Umarov, U.G'.Zunnunova "San'at menejmenti", O'quv qo'llanma, 255-bet
2. Fayziyev T. "San'at menejmenti va marketingi". Fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2021. 325 b
3. Xolmo'minov M. "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish" O'UM.Toshkent 2021. 328-b
4. Xolmo'minov M. "Madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish" O'UM.Toshkent 2021. 328-b
5. Azarova F. Menejment. O'UM. Toshkent – 2018. TMI. 465-betю
6. Ҳайдаров А. Ижодий фаолиятни режалаштириш ва бошқариш – Тошкент – 2019. 197-б.